




E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2023, № 5, iyun**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
**Elektron manzil:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich,** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.,** filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.,** kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.,** texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.,** fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich,** texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich,** psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich,** biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich,** siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich,** kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich,** tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich,** tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich,** tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Amonova Zilola Qodirovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich,** tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich,** siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna,** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Zaripov Gulmurot Toxirovich,** texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR \*\*\* EXACT AND NATURAL SCIENCES \*\*\*  
ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

<b>Akramova D.I.</b>	Estimates for convolution operators related to $A_\infty$ type singularities	4
<b>Hamroyev Y.Y., Bahronova D. B.</b>	M Shturm-Liuvill masalasini yuqori aniqlikdagi variatsion ayirmali sxemalar yordamida yechish	14
<b>Elmuradova H.B.</b>	A direct problem of 1D pseudoparabolic integro-differential equation	19
<b>Ishmamatov M.R., Esanov N.Q., Xalilov Sh.F., Jo'rayev O'.Sh.</b>	Ichida suyuqlik bo'lgan ikki ipli quvurda seysmik to'lqinlar difraksiyasi	24
<b>Imomova Sh.M., Islomova D.X. Mirzoyeva G.T.</b>	Mathcadda algebraik masalalarni yechish	29
<b>Jumayev J.</b>	Simulation of a free jet using Sekundov's one-parameter turbulence model	36
<b>Esanov N.Q. Xalilov Sh.F. Jo'rayev O'.Sh. Rahmonova G.X.</b>	Silindrik tayanchli tunnelda harakatlanuvchi normal va burama yuklarning birgalikdagi harakati	42
<b>Shodiyeva E'.B. Kengboyev S.A. Dusanova G.M.</b>	Sovun ishlab chiqarish texnologiyasi	48
<b>Sharipova M.Sh.</b>	Uchinchi tartibli operatorli matritsaning muhim spektr tarmoqlari: 1 o'lchamli hol	52
<b>Toshturdiyev A.M.</b>	Eigenvalues of the two-particle Schrödinger operator with a cylindrical potential	60
<b>Esanov N.Q.</b>	Yupqa devorli sterjenda burama to'lqin dispersiyasi	69
<b>Турдиев Х.Х., Умарова Ш.Х.</b>	Линейные краевые задачи для уравнений эллиптического типа	75
<b>Yashiyeva F.Y.</b>	MathCAD redaktori yordamida umumlashgan Fridriks modeli xos qiymatlarini tadqiq qilish	82
<b>Eshankulov H.I., Xayitova D.I.</b>	Sog'liqni saqlash tizimida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda raqamlashtirishni joriy etish	87
<b>Пардабаев М.А., Мажидова М.Г.</b>	Асимптотика собственных значений билапласиана с возмущением ранга один на одномерной решётке	92
<b>Содиков М.К., Бобокулова Ф. Ш., Киямова М. И.</b>	Ацетилен эфирларни галогенли ҳосилалари синтези натижаларини математик қайта ишлаш	101
<b>Назаров М. Р., Назарова Н. М., Нарзуллоев У.А.</b>	Физика таълим тизимида радиотехника элементларидан фойдаланиш	106

<b>Amrilloeva K.S., Umarova Sh.H.</b>	Kasr tartibli diffuziya tenglamasi uchun nolokal chegaraviy shartli masalada manba funksiyasini aniqlash	112
<b>Хамраев Ю.Ю., Норова М.О.</b>	Об однородных разностных схемах высокого порядка точности для краевой задачи с особенностью	120
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Asadov T.H.</b>	Predmet-belgi ma'noli yasama so'zlar va ularning lug'atlardagi ifodasi	126
<b>Rakhmatova M.M.</b>	Pragmatic analyses of implicature in the novel "The fault in our stars" by John Green	132
<b>Adizova N.I.</b>	Badiiy matnning lingvostilistik tadqiqi va ijodkor uslubi	136
<b>Alisoy H.H.</b>	A comparative study of Lithuanian and old Prussian	143
<b>Boltayeva N.R.</b>	Siyosiy tilshunoslik fan sifatida	149
<b>Axmedov A.R., Hamroyeva M.R.</b>	Badiiy asarlardagi antroponimlarning lug'aviy qatlam masalasiga doir lingvistik tahlil va xulosalar	154
<b>Mamaraximov S.</b>	Leksemalarning barqarorlashishi hamda nutqiy ma'noning lisoniylishuvi	159
<b>Mamatqulov A.</b>	O'zbek tilida so'z yasalishi Azim Hojiyev nazdida	163
<b>Mardonova S.O.</b>	Muallif nutqi metaforalarining struktur-semantik tabiati xususida (U.Azim she'riyati misolida)	167
<b>O'razov A.D.</b>	Tog'ay Murod asarlarida evfemizmlar va disfemizmlardan foydalanish mahorati	171
<b>Исақова З.З.</b>	Тилшуносликдаги баҳо семантик категорияси ва ёндош семантик ходисалар	175
<b>Шарипов Ж.</b>	Сўз яшада лисоний ва нолисоний омиллар	180
<b>Шарипов Ф.Г.</b>	Морфологик луғатларнинг яратилиши – янги амалий босқич калити	185
<b>Saidov S.S.</b>	An overview of corpus linguistics and its benefits in language teaching	190
<b>Babayev M.T.</b>	Nemis va o'zbek tillarida evfemizmlarni qiyosiy o'rganish	195
<b>Niyozova Sh.T.</b>	The contrastive analysis and research of national specificity of phraseological semantics	203
<b>Seyidov R.R.</b>	Effective approaches for teaching arabic: a comprehensive guide to enhancing language instruction	207
<b>Abatov D.R.</b>	Antroponimik indikatorlar va ularning xalq dostonlari matnida qo'llanishi (Qashqadaryo xalq baxshilari dostonlari misolida)	219
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Annaxasanova I.B.</b>	Analysis of scientific works on studies of Alisher Navoi in Russian orientalism in the XX century	223
<b>Fozilova O'F.</b>	Firdavsiyning "Shohnoma" asarida navro'z va unga doir tushunchalarning yoritilishi	227
<b>Jabbarova M.X.</b>	Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlarida ayol obrazidagi ruhiyat tipologiyasi	233

**GI DE MOPASSAN VA ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA  
AYOL OBRAZIDAGI RUHIYAT TIPOLOGIYASI**

*Jabbarova Maloxat Xamdamovna,  
Buxoro davlat universiteti frantsuz  
filologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi  
[m\\_jabbarova@mail.ru](mailto:m_jabbarova@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frantsuz va o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan adiblari – Gi de Mopassan bilan Abdulla Qahhorning roman va hikoyalarida ayol idealini tasvirlashdagi o‘ziga xoslik, yaqinlik va tafovutlar tasvirlangan. Jumladan, har ikkala ijodkor o‘z asarlarining o‘qimishli chiqishini ta‘minlash maqsadida ko‘pincha qahramonlar ichki dunyosini, ruhiyatini chuqur tahlil qilishga e‘tibor qaratadilar. Ularning ruhiy olamini tadqiq etadilar.

Ularning ayol obrazini talqin va tasvir etishdagi uslubiy yaqinligini dalillash esa adabiy ta‘sir ostida shakllanadigan paradigmatic munosabatlarni belgilab ko‘rsatish imkonini beradi. Ayol obrazi barcha xalqlar adabiyotida milliy dunyoqarash, hudud, madaniyatga muvofiq poetik talqin etilishini asoslaydi. Natijada ayol obrazi adabiyotdagi an‘anaviy obrazlardan biri ekani, uni tasvirlash poetikasi taraqqiy etib kelayotgani o‘z isbotini topadi.

**Kalit so‘zlar:** syujet, kompozitsion qurilish, ruhiyat, psixologizm, tipologiya, paradigmatic munosabatlar, portret, jest, mimika, xilvat, pamflet, detal, baqqol, doya xotin.

**ТИПОЛОГИЯ МЕНТАЛЬНОСТИ В ОБРАЗЕ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ  
ГИ ДЕ МОПАССАНА И АБДУЛЛЫ КАХХОРА**

**Аннотация:** В данной статье описывается своеобразие, общность и различия в изображении идеала женщины в романах и повестях выдающихся писателей французской и узбекской литературы Ги де Мопассана и Абдуллы Каххора. В частности, оба автора часто уделяют внимание глубокому анализу внутреннего мира и психики персонажей, чтобы обеспечить грамотный вывод своих произведений. Они исследуют их духовный мир.

Доказательство их методологической близости в трактовке и изображении образа женщины позволяет определить парадигматические отношения, сложившиеся под литературным влиянием. Образ женщины в литературе всех народов строит свою поэтическую трактовку в соответствии с национальным мировоззрением, регионом, культурой. В результате доказывается, что образ женщины является одним из традиционных образов в литературе, развивается поэтика её описания.

**Ключевые слова:** сюжет, композиционное построение, психика, психологизм, типология, парадигматические отношения, портрет, жест, мимика, хилват, памфлет, деталь, бакалейщик, повивальная бабка.

**TYPOLOGY OF MENTALITY IN THE IMAGE OF A WOMAN IN WORKS  
GUY DE MAUPASSANT AND ABDULLAH KAHHOR**

**Abstract:** This article describes the uniqueness, closeness and differences in the depiction of the ideal of a woman in the novels and stories of Guy de Maupassant and Abdulla Qahhor, prominent writers of French and Uzbek literature. In particular, both creators often pay attention to the deep analysis of the inner world and psyche of the characters in order to ensure the educated output of their works. They explore their spiritual world.

Proving their methodological closeness in interpreting and depicting the image of a woman makes it possible to define the paradigmatic relations formed under literary influence. The image of a woman in the literature of all nations bases its poetic interpretation in accordance with the national outlook, region, and culture. As a result, it is proved that the image of a woman is one of the traditional images in literature, and the poetics of her description is developing.

**Key words:** *plot, compositional construction, psyche, psychologism, typology, paradigmatic relations, portrait, gesture, facial expressions, nook, pamphlet, detail, grocer, midwife.*

**Kirish.** Jahon adabiyotshunosligida Sharq va G'arb adabiyoti munosabatini oydinlashtirishga e'tibor hamisha ustuvor bo'lgan. Ularning har ikkalasida erishilgan adabiy-estetik tajribalarni ijodkorlarning obrazlar tanlash va uni badiiy tasvirlashdagi uslubiy yaqinligi misolida asoslash o'zaro adabiy ta'sirga aloqador nazariy qarashlarni boyitishi jihatidan muhim hisoblanadi. Bunda frantsuz va o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan adiblari – Gi de Mopassan bilan Abdulla Qahhorning roman va hikoyalarida ham ayol idealini tasvirlashda o'ziga xos yaqinliklar borligi alohida diqqatni tortadi. Ularning ayol obrazini talqin va tasvir etishdagi uslubiy yaqinligini dalillash esa adabiy ta'sir ostida shakllanadigan paradigmatic munosabatlarni belgilab ko'rsatish imkonini beradi. Ayol obrazi barcha xalqlar adabiyotida milliy dunyoqarash, hudud, madaniyatga muvofiq poetik talqin etilishini asoslaydi. Natijada ayol obrazi adabiyotdagi an'anaviy obrazlardan biri ekani, uni tasvirlash poetikasi taraqqiy etib kelayotgani o'z isbotini topadi.

Buyuk frantsuz yozuvchisi Gi de Mopassan ijod bo'sag'asiga qadam qo'yganida, uning qarshisida uch bo'g'inga mansub adabiy meros – Stendal, Balzak va Flober tanqidiy realizmi, V.Gyugo, J.Sand va A. de Myusse romantizmi hamda E.Zolya va aka-uka Gonkurlar bosh bo'lgan naturalizm turardi. Shuning uchun ham, keyinchalik Mopassan ijodini o'rgangan tanqidchilar, uning asarlarida har uchala maktab an'analarni ko'rish mumkin, degandilar [1; 9-12 b], [2; 191-233 b].

O'zbek adabiyotining taraqqiyotida, ayniqsa, unda yangi janr hisoblangan realistik hikoyaning kamol topishida, yuksak cho'qqiga ko'tarilishida ulkan so'z san'atkori Abdulla Qahhorning xizmati katta bo'ldi. O'zbek adabiyoti yangilanish jarayonini boshdan kechirayotgan XX asrning 20-30 yillarida, xuddi Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligida, Hamza Hakim-zoda dramaturgiyada, Cho'lpon shepiyatda isloh yasagani singari A.Qahhor ham epik turning kichik janri hisoblangan hikoyachilikning rivojlanishiga ana shunday hissa qo'shdi. Uning har bir asari o'quvchini o'zining badiiy go'zalligi bilan maftun qiladigan, syujeti va kompozitsion qurilishining pishiqligi bilan hayratga soladigan, tilining mukammalligi hamda samimiyligi bilan xayajonlantiradigan ijod namunalaridir.

**Tadqiqot obyekti.** Gi de Mopassan naturalist yozuvchilardan biri edi. Uning "Azizim" ("Bel Ami") romanida aristokrat insonning ma'naviy buzuqligi, burjua vakilining yaramas ishlari ro'y-rost ochib tashlangan. Naturalizm lotincha "natura" – "tabiat" so'zidan olingan bo'lib, u orqali ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tabiat qonunlariga bog'liq deb hisoblanadi. Voqea va hodisalar tasvirida hayotiy materialni aynan tasvirlashga ahamiyat beriladi. Insonning biologik va fiziologik ehtiyojlariga e'tibor qaratiladi. "Azizim" romanida ham bosh qahramon xarakterini shu jihatdan ochib berishga e'tibor qaratilgani kuzatiladi.

Yozuvchiga katta shuhrat keltirgan bu roman qahramoni oddiygina normand dehqonining o'g'li bo'lgan Jorj Dyurua – Azizim yirik moliya nahanglari, siyosat ajdaholaridan olg'irlik, firibgarlikni o'rgandi, o'zlashtirib, tez fursatda ulardan ham o'tib tushgan ustasi farang tovlamachiga aylanadi. "Azizim" laqabini orttirgan bu sobiq, unter-ofitser kelishgan, savlatli, ayollar orzu qilgandek shop muylovli va qirg'iy burun erkaklar toifasidan bo'lgani uchun o'z faoliyatini badavlat xonimlarni ovlashdan boshlaydi. Dastlab do'sti Forest'ening xotinini ilintiradi. Bu ayolning jurnalistik mahoratidan foydalanadi. Forest'e vafot etgach, beva Madlenaga uylanib oladi. Forest'edan qolgan barcha mol-mulk uning hisobiga o'tadi. Madlena esa bor mahoratini ishga solib, yangi eri uchun maqolalar yozadi. Tez orada taniqli jurnalist bo'lib qolgan Dyurua gazetaning xronika bo'limiga boshliq etib tayinlanadi. Shu bilan Dyurua jamiyatdagi orzu qilgan birinchi pog'onasini egallaydi. So'ngra u gazetaning bosh redaktori janob Valterning xotiniga muhabbat izhor qiladi. Uni ham hiyla-nayranglar bilan osongina tuzog'iga ilintirgach, u orqali Parijdagi eng obro'li xonadonlarda bo'ladigan bazm-u jamshidlarda ishtirok etadi. Endi u xotining kiborlar oilasidan bo'lishini istaydi. Dyurua shu maqsadda janob Valterning sohibjamol qizi Syuzannani ishq-muhabbat komiga tortadi. Shu orada Madlenaning deputat va ministr Larosh-Mat'e bilan don olishib yurgani ma'lum bo'lib qoladi. Dyurua ministr bilan xotinini yashirin kvartirada politsiya

komissari guvohligida qo'lga tushirib, Madlenadan osongina ajraladi va eriga vafosizlik qilgani uchun Madlena merosdan ham mahrum etiladi. Shunday qilib, Dyurua million sepi bo'lgan go'zal Syuzannaga uylanib oladi. Qaynotasi janob Valter ta'kidlaganidek, endi unga barcha yo'l ochiq edi: u deputat ham, ministr ham, hatto Frantsiya meri ham bo'lishi mumkin edi. Demak, Jorj Dyurua burjua tuzumining barcha tartiblariga moslashib olgan, jamiyat uchun kerakli va ardoqli shaxs bo'lib tan olinadi.

Adib romanga "Erkak fohisha" nomli pamfletini obyekt qilib olgan. Ammo bunda "fohisha" so'zi buzuqi ma'nosida emas, "sotqin" ma'nosida ishlatilgan.

Aytishlaricha, Mopassan uchiga chiqqan xotinboz bo'lgan. Shuni inobatga olib, Tolstoy uning "Hayot mazmunini ayol va muhabbatda..." deb bilganini eslaydi. Darhaqiqat, shu ruhiyat Mopassanning "Hayot" romani mazmuniga chuqur singdirilgan. Yana uning "Savatsoch", "Erme xonim" kabi asarlari "Meni aqli zaiflar maftun etadi" degan so'zlar bilan boshlangan va ularda aqldan ozish, ruhiy siqilish va shu bilan bog'liq kasalliklar mavzusi yoritilgan.

Adibning "Tel'e mahkamasi" nomli novellalar to'plamidagi hikoyalarida burjua jamiyatidagi buzuqi hayot, shahvoniy hisga berilgan erkak va ayollar fizionomiyasi yumoristik mazmunda yaratilgan. Ular faqat bir maqsad: kayf-safo orzusida yashaydigan va mehnat qilish, oila qurish va farzand ko'rish kabi insoniy tuyg'ulardan mahrum odamlardir.

Barcha ijodkorlar o'z asarlarining o'qimishli chiqishini ta'minlash maqsadida ko'pincha qahramonlar ichki dunyosini chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratadilar. Ularning ruhiy olamini tadqiq etishga urinadilar. Bunda ko'pincha yozuvchi ortiqcha so'z ishlatib o'tirmaydi, balki ko'proq detallarga suyanadi, portretidan, insonning xatti-harakatlaridan, jesti va mimikasidan foydalanadi.

Abdulla Qahhor ijodi, uning o'ziga xos uslubiyati haqida gap yuritilganida, uning usta ruhshunos ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Yozuvchi o'z qahramonlarining hamma sirlaridan xabardor. Uning diqqatidan biror narsa chetda qolmaydi. A.Qahhor kishi qalbini, o'zgaruvchan qiyofasini chuqur his qiladi va uni aniq ko'rsatish yo'llarini biladi. A.Qahhor ijodiy uslubida nutq masalasi katta ahamiyat kasb etadi.

A.Qahhor asarlarida salbiy xarakterli xotin-qizlar obrazi ham talaygina. Ular orasida "Sarob" romanidagi Munisxon obrazi tez ko'zga tashlanadi. U badavlat xonadonning xudbin qizi sifatida unib o'sdi. Shuning uchun u birovlarni mensimay, o'zini hammadan ustun qo'yadi. Ushbu xudbinlik kasali uni o'zidan boshqani sevishga bir umr yo'l qo'ymadi. Benihoya go'zal Munisxon tuban xarakteri tufayli o'z hayotiga o'zi zomin bo'ladi. U ko'proq erkak zotini asir qilishni o'ylaydi. Buzuqlik qo'chasiga kirib, fojiali o'lim topdi. Tashqi go'zalligi bilangina emas, farosati, didi, ichki latifligi bilan kishini maftun aylaydigan Munisxondek dilbar, zamonaviy, vatanparvar qiz o'z joniga qasd qilib, to'pponcha bilan o'zini otadi. U nimaga o'zini otganini Saidiy ham, boshqalar ham bilmaydi. Bunga Munisxonning ishqsiz va baxtsiz yashashga ko'nika olmagan sabab edi. Buni uning o'limi oldidan yozib qoldirgan "Olam to'la baxt, faqat men baxtsiz edim" degan xati oshkor qilardi.

A.Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasidagi Norqo'zining xotini yoki "To'yda aza" hikoyasidagi "xo'rozqand" kelin ham yengiltakligi tufayli Munisxon va "Nurli cho'qqilar"dagi Zuhralar safidan o'rin oladi.

"Maston"dagi Turg'unoy obrazi o'z xarakter-xususiyatiga ko'ra g'ayratli va qo'rqmas Mastonga zid bo'lib, juda bo'sh, sodda, jur'atsiz. Unda o'z baxti yo'lida kurashish uchun dadillik yetishmaydi.

Inson psixologiyasini ochishda san'atkor mas'uliyatining roli to'g'risida A.Qahhorning o'zi shunday yozadi: "Psixologizm, kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlari va go'zalligiga yaxshi e'tibor qilish to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir". Mana shu aytganlariga qat'iy amal qilgan A.Qahhor qariyb har bir asarida odam xarakteriga xolis turib qo'l urar ekan, uning ichki dunyosini ishonarli va to'laqonli ochishga harakat qildi. Masalan, uning "Asror bobo" hikoyasida o'g'li urushga ketgan ona har doim o'g'lini eslaydi. Uning kuchi faqat yig'iga yetadi. O'choq boshida ham, dasturxon ustida ham betoqat bo'lib o'tiradi.



Badiiy psixologizm personaj ruhiyatini ochib berish, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining «ichki monolog», ong «oqimi tarzida», yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan muallif gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi [3; 56 b].

Ibrohim Haqqul aytganidek: “Abdulla Qahhor hikoya va qissalaridagi har bir so'z, har bir iboraning o'rni shu qadar muqim va mustahkamki, ularni boshqa so'z, boshqa ibora yoxud jumla bilan o'zgartirish deyarli imkonsiz”. Abdulla Qahhorning so'zga munosabati, so'z qo'llash san'ati ko'pchilikka ma'lum: u so'zga behad xasis. So'zni haddan ziyod tanlab, chertib-chertib ishlatadi. Undan bizga meros qolgan asarlarning aksariyati tomirida qon yugurayotgan, ko'zi, qulog'i, shuuri ochiq so'zlardan yaralgani bilan ham alohida ahamiyatga ega” [4; 11 b].

Gi de Mopassanning “Darbadar” hikoyasida garchi Randel ismli qashshoq bir duradgor yigitning singillariga boqimanda bo'lmaslik uchun non izlab, yo'lga chiqib, jandarm ta'qibiga uchrashi tasvirlangan bo'lsa-da, unda uzoqdagi barvasta bir qizni – kimningdir xizmatchisini ko'rib qolib, kayf tufayli uni zo'rlashi tasviri alohida e'tiborni tortadi. Yozuvchi kayfdagi Randel ruhiy holatini “ko'zlari xuddi bedanani ko'rib qolgan itdek yonardi” deb ta'kidlaydi. Qiz esa bundan bexabar obkashda to'la ikki chelak sutni ko'tarib qishloqqa ketayotgan edi. Randel engashib qizni poylab turadi. Qiz uni ko'rib boshini ko'tarib qarab, xandon tashlab kuladi-da: “Ashula aytayotgan siz edingizmi?” – deb so'raydi.

Qizning bu nutqi uning xarakteridagi soddalik va samimiyat, xushmuomalalik va odoblilikdan dalolat beradi. Lekin yigit qizning so'zlarini eshitmas, hirs bilan qizning yelkalaridan ushlab, indamasdan yo'lga yiqitadi. Qizning qo'lidagi chelak taraqlab yerga tushib suti to'kilib ketgach, qichqira boshlaydi, lekin xilvat, kimsasiz yerda birovni yordamga chaqirish befoydaligini va endi yigit uni o'ldirmoqchi emasligini bilib, indamaydi, qarshilik ham ko'rsatmaydi, uncha jahli ham qilmaydi, chunki bu yigit garchi juda qo'pol bo'lsa-da, kuchliligi unga ma'qul keladi. Biroq qiz esini yig'ib, o'rnidan turgach, to'kilib ketgan sut esiga tushib, juda jahli chiqadi, oyog'idagi kavushini yechib olib, yigitga tashlanadi, sutning pulini bermasa, urib boshini yormoqchi bo'ladi.

Bu o'rinda adib “to'kilib ketgan sut” detali orqali ko'p narsaga – or-nomus, g'urur, rizqning poymol bo'lganiga ishora qilishni ko'zlagan. Kayfdagi yigit qizning g'azablanish sababini tushuna olmaydi, ammo bir oz kayfi tarqalgach, shoshib qolib, qilgan ishidan kayfi uchib ketgan holda qocha boshlaydi. Qiz bo'lsa uning orqasidan quvlab tosh otar, toshlarning ba'zi birlari borib yigitning orqasiga tegardi.

Bunday lavhalar ayol va erkaklarning hirs oldida ojizlanib qolishiniyu so'ngra pushaymon bo'lishini anglatadi.

Gi de Mopassanning “Rozali Pryudan” hikoyasida mantalik Varambo janoblarining Rozali Pryudan degan oqsoch qizi ikkiqatligini xo'jayinlaridan yashirgani, kechasi hech kimga bildirmasdan o'z hujrasida tuqqan bolani o'ldirib, boqqa ko'mib qo'ygani, keyin siri ochilib qolib sud qilingani, lekin sud uni oqlagani bayon etilgan.

Agar hech aqlga sig'maydigan ajib bir holat bo'lmaganda, bu barcha oqsoch qizlar qilib yurgan oddiy bir voqeadek bo'lib qolardi,– deydi adib.

Pryudan o'z qo'li bilan bolaga atab ancha narsalar tikib, tayyorlab qo'ygan, bu narsalarni u uch oy davomida kechalari bichib-tikib yurgan, shu narsalarni kechalari tikish uchun topgan-tutganiga sham olib yurgan edi. Rozali yana o'sha yerli doya xotinga borib maslahat so'ragan, doya xotin esa unga bordi-yu birdan to'lg'oq tutib qolib, birovni yordamga chaqirishga fursat bo'lmay qolsa nima qilishni yaxshilab tushuntirib bergan, yana u qizga Puassidan bir uy ham topib bergan edi. Bunga baqqol bilan doya xotin guvohlik beradi. Shundan kelib chiqib, qiz bolasini o'ldirmoqchi bo'lmaganini hamma his etadi. Varambolar haromdan parhez qilishlarini va bu ishni bilib qolishsa uni haydab yuborishlarini Rozali yaxshi bilgani, tug'ilgan bolalari egizakligi bois ularni boqa olmasligi tufayli shu mudhish ishga qo'l urganiga iqrar bo'ladi.

Qishloqning obro'li kishilaridan bo'lgan er-xotin Varambolar bir rasvo xotin uylarini badnom qilishga jur'at etganiga fig'onlari chiqib, zalda o'tirishardi. Ular qizni sud qilib o'tirmasdan oq,

o'sha onning o'zida gilotinga yuborishga shunchalik shoshishardiki, eng kichik dalil ham ularning og'izlaridan hukmga o'xshab chiqardi.

Sud qilinayotgan xotin chiroyli, barvasta, o'z tabaqasidan bo'lgan xotinlarga qaraganda xiylagina shahar aksi urgan, quyi normandiyalik bo'lib, ko'zlaridan yosh to'kkanicha jim o'tirardi.

Bu xarakteristika ayolning psixologik xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Ko'pchilikning fikricha, bu vahshiyona ishni u jahl ustida qilgan, negaki, uning hamma ishi to'ng'ich bolasini o'stirish umidida ekanligini ko'rsatib turardi.

Qiz joni-dili bilan bolaning otasini yashirar edi. U Varambo janoblarining jiyani edi. Qiz uning xudo bergan kuni xushomad qilgani, aldagani, o'zining esa bunga berilib bo'shlik qilganini, ayniqsa, chiroylisan, yoqimtoysan, menga juda yoqasan, deyaverganidan keyin o'zini tutolmaganini aytib beradi. Axir yolg'izman, yetimman, so'qqa boshman. Yorug' dunyoda hech kimim, na ikki og'iz so'zlashadigan, na hasratimni aytadigan odamim bor. Na ota-onam, na opa-singlim, na aka-ukam – hech kimim yo'q. U men bilan birinchi gapirishgandayoq, xuddi ko'pdan ko'rishmagan akam kelguday bo'ldi. Shunday qilib, bir kuni kechqurun daryo bo'yiga chiq, o'sha yerda, hech kim xalal bermaydigan joyda so'zlashib o'tiramiz dedi... Bordim... Undan keyin bilmayman, o'zim ham bilmayman... Quchoqladi, unamadim... yo'q... ishonasizmi, axir bo'lmadi. ..Homilador bo'lib qolibman, bir oydan keyingina bildim...

Qiz o'zini tutolmay, achchiq-achchiq yig'lab homilador bo'lib qolganini bilishi bilanoq, doya xotin Budenxonimning oldiga borgani, ko'proq pul yig'ishning payiga tushganini aytib berdi.

Asarda personaj psixologiyasi uning xatti-harakatlarida aks etadi. Qahramonning gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ruhiyatning ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko'rinishi bir-birini to'ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi ularning har ikkisidan ham o'rni bilan unumli foydalanadi [5; 15 b].

Yuqoridagi nutq ifodasi qahramon psixologik tasvirida uning uchta belgisini ko'rsatib beradi. Birinchi belgi, u o'ta noiloj va nochor. Ikkinchi belgi, u katta va qo'rqinchli uyda ixtiyorsiz yashaydi. Uchinchi belgi, u berahm va qotil emas.

Rozali Pryudanning uch belgisini o'z ichiga olgan hayot tarzi odatdagi qahramonlar hayotiga sira o'xshamasligi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun muallif ushbu ayol xarakterini ko'rsatib berishda ruhiyat tasviridan foydalanadi.

Rozali Pryudan sud ishtirokchilariga: “Kutganimdan oldinroq to'lg'oq, tutib qoldi. Oshxonada idish-tovoq yuvib bo'layozganimda dard tutib qoldi. Qancha vaqt qiynalganimni bilmayman! Bir soatmi, ikki soatmi, balki uch soatga ham cho'zilgandir, og'riqning zo'ridan hech narsani bilmay qoldim. So'ng kuchim boricha bir kuchangan edim, bola yerga tushdi. Uf, rostini aytsam, shunday sevinib ketdim. Yerdan olib, Budenxonim aytgan ishlarning hammasini qildim. Birontasi esimdan chiqqani yo'q. Endi to'shakka yotqizishim bilan yana og'riq boshlandi, shunaqangi og'ridiki, dunyo ko'zimga qop-qorong'i bo'ldi! Sizlar ham shuni bir ko'rsalaring edi, bir umr bolani orzu qilmas edilaring! Yana to'lg'oq boshlandi. Yana bir soatmi, ikki soatmi, yonimda bironta odam yo'q. Ikkinchisi tug'ilsa bo'ladimi. Ikkinchi bola-ya... buni qarang, ikkita-ya... rost... rost... ikkita... Uni ham xuddi birinchisiga o'xshatib yerdan oldim, avvalgisining yoniga yotqizib qo'ydim... Shunaqa ham bo'ladimi, o'zingiz ayting! Egizak-a! Oyiga yigirma frankkina olsam. Qandoq qilay, o'zingiz o'ylang! Bitga bo'lsa ham go'rga edi... o'zim yemasam ham... ikkitasini! Boshim qotib qoldi... Nima qilsam bo'lardi, ayting-chi? Bittasini olib qolib... shunday qilsam bo'larmidi? Qayoqdan bilaman! Ha, endi o'lgan ekanman dedim... Jon achchig'ida ustlariga yostiq tashladim... ikkalasini boqa olmaganimdan keyin... Uning ustiga o'zimni tashladim: tong otguncha yig'lab, ag'nab chiqdim. Bu orada, albatta, ikkalasi ham yostiq tagida dimiqib o'lib qoldi. Shundan keyin ikkalasinning o'ligini olib boqqa tushib, bog'bonning kuragini topdim va ikki joyga zo'rg'a ikkita go'r qazidim. Yana onalari to'g'risida so'zlashmasin, deb ikkalasini ikki joyga ko'mib qo'ydim. Kim biladi, dunyoni ko'rmay ketgan bolalar onasi haqida so'zlashadimi, yo'qmi. Undan keyin uyimga qaytib keldim, yotdim. Shunday yomon bo'ldimki, o'rindan turib bo'lmadi. Doktor chaqirishdi, u ko'rishi bilanoq hammasini bildi..” deydi.

Sudyalardan ba'zilar ko'ziga kelayotgan yoshni qaytarish uchun hadeb burun qoqishar, zaldagi xotinlar ho'ngrab yig'lashardi. Qiz bolalarini ko'mgan joyini aytar ekan, ko'krigidan yig'i aralash, yurakni tilka-tilka qiladigan ingroq otilib chiqadi.

Ayollar so'zmolligi, xunuk va yoqimsiz ko'rinishi, noo'xshov kiyinishi ham ularni salbiy xarakter tipi sifatida namoyon etadi.

**Xulosa.** 1. Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor asarlari turli davrlarda, turli dunyoqarash va madaniyat asosida yaratilgan bo'lsa-da, ayol va oila, uy kontseptlari orqali ko'pincha oila muammosi, oilaning jamiyatdagi o'rni, ayol oilaning ajralmas qismi ekani, oilani boshqarishda ayol faolyatining ahamiyati yoritilgani bilan o'zaro yaqinlik hosil qilgan.

2. Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor asarlarida tasvirlangan ayollar xarakterlarining bir-biriga bog'liq va ularning qisman bir-biriga o'xshash tomonlari mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar ko'pincha xarakter dinamikasida kuzatiladi.

3. Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor ijodida ayol obrazi xususiyatlari psixologik jihatdan chuqur tahlil qilingan. Har ikkala muallif ijodiga mansub har bir ayol xarakterining sifatleri o'rganilgan. Har bir qahramon nomida uning xarakterini bildirib turuvchi ma'nolar o'z ifodasini topgan. Asar qahramonlariga berilgan ismlar deyarli bir-biriga o'xshamaydi.

### ADABIYOTLAR:

1. Danilin Yu.I. *Mopassan. Jizn i tvorchestvo*. M; 1968. s 9-12.
2. Danilin Yu.I. *Istoriya frantsuzskoy literaturi*. M; Izd-vo AN SSSR, 1959, tom III, s.191-233.
3. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. –T.: Akademnashr, 2006. – 56 b.
4. Ibrohim Haqqul Abdulla Qahhor jasorati. *Esse*. – «Tafakkur» jurnali, 2007. – 11 b.
5. Muxammedova H.E. *Charlz Dikens asarlarida ayol xakteri tipologiyasi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. –T.: 2019. – B.15.
6. Gi de Mopassan “Hayot”, “Azizim” novellalar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987 y.
7. Abdulla Qahhor. *Sarob: Roman*. – T.: «Sharq» NMK Bosh tahririyati, 1995. – 240 b. – (XX asr o'zbek romani).
8. Qahhor A.5 jildlik 1 jild. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 333 b.
9. Jabbarova Malokhat Khamdamovna. *The influence of the national worldview on the image of the woman in the works of Guy de Mapuassant and Abdulla Kahhar*”. *Electronic Journal Of Actual Problems of Modern Science, Education and Training*. aprel, 2022 - 4. 61-64 betlar.
10. Jabbarova Malohat Hamdamovna. *A description of the artistic image of the works of guy de mopassan and Abdullah Qahhor*. p.117-119. *Indonesian Journal of Innovation Studes*. Vol. 18(2022); april 2022
11. M.Jabbarova. *Gi de Mopasson hamda Abdulla Qahorning ayollar tasvirida alvasti va yosuman obrazlaridan foydalanish mahorati*. *Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi*. 2023-2/4. 188-192 betlar.